

## TOSHKENT VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*


*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vog'ar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

29 107




Mas'uliyati cheklangan jamiyat

3 555



Oilaviy korxonona

235



Unitar korxonona

8 012



Xususiy korxonona

56




Aksiyadorlik jamiyati

519




Boshqa korxonalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat  
ming birlik



xususiy korxonona  
ming birlik




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'xis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'xis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyun holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-may oylarida, ming birlikda)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyatlari bo'yicha, yanvar-may oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi

(2020- yil yanvar-may oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-may oylarida 3 273 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 2 491 ta, xususiy korxonalar – 234 ta, oilaviy korxonalar – 450 ta, muassasalar – 26 ta va boshqalar – 72 tani tashkil etdi.

## Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi (1- iyun holatiga ko‘ra)



## Sanoat yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko‘ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 7 831 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,8 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko‘payishining asosiy omili – (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 118,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,9 %), tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 131,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,1 %), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash – 148,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) va suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 105,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,1 %) o‘shidir.



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 3 246 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,6 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 123,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 53,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 148,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 7,5 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 144,4 % ga (jami qurilishdagi ulushi 38,7 %) o'sishidir.


## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 10,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 136,9 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 140,0 % ga (jami savdodagi ulushi 69,5 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 130,0 % ga (jami savdodagi ulushi 23,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 131,8 % ga (jami savdodagi ulushi 7,0 %) o'sishidir.



## Oilaviy korxonalar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra 3 555 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 256 taga yoki 154,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3 169 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 142 taga yoki 156,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 450 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 28 taga yoki 94,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- iyun holatiga ko'ra, 29 107 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 887 taga yoki 125,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 25 636 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 473 taga yoki 127,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 491 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 691 taga yoki 78,3 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital shtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, 1 369 tani tashkil etib, ulardan 1 228 tasi yoki 89,7 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 294 taga yoki 127,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-may oylarida viloyatimizda 67 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-may oylarida, birlikda)



## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonaga va xorijiy korxonalariga taqsimlanishi


(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017 – 2021 yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.


## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyun holatiga ko'ra, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.


**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan (UZSTAT). The main header features the national emblem and the text 'O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO'MITASI'. Below the header, there is a navigation menu with options like 'ASOSIY SAHIFA', 'QO'MITA HAQIDA', 'AXBOROT XIZMATI', 'INTERAKTIV XIZMATLAR', 'OCHIQ MA'LUMOTLAR', 'MUHOJATLAR', and 'KONTAKTLAR'. The main content area is titled 'INTERAKTIV XIZMATLAR / KTYaDR ma'lumotlari'. A dropdown menu is open, listing services such as 'Xizmatlar ro'yxati', 'Elektron hisobot', 'KTYaDR ma'lumotlari', 'Uslubiy materiallar', 'Statistik klassifikatsiyalar', 'Taqdim etiladigan hisobotlar ro'yxati', and 'Korxonalar pasporti'. The 'Korxonalar pasporti' option is selected, leading to a registration form. The form includes a section for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) with a large input field and a 'Qidiruv' (Search) button. Below this, there is a section for 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from image) with a smaller input field and another 'Qidiruv' button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics) with links to various reports. The right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information) with links to population reports, strategies, press releases, and other statistical data.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Toshkent viloyati**  
**Statistik registrnlarni yuritish bo'limi**

**Tel.: 71 230-86-84 (83)**

